



Marosimlar siyosiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida

Maxamatkarimov Sardorbek Shuxratbek o'g'li

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy

Kommunikatsiyalar Universiteti Siyosatshunoslik

yo'nalishi talabasi, Toshkent sh

Annotatsiya: Mazkur maqolada marosimlarning siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, siyosiy tizimlar tomonidan hokimiyatni legitimlashtirish, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish va fuqarolarning siyosiy tizimga sadoqatini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi yoritiladi. Shu bilan birga, tarixiy va zamonaviy misollar orqali turli madaniyatlardagi siyosiy marosimlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Marosimlarning ijtimoiy ongini shakllantirishdagi va siyosiy mafkuraning barqarorligiga xizmat qilishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Marosimlar, siyosiy barqarorlik, legitimlik, siyosiy tizim, mafkura, ijtimoiy birlik, siyosiy ideologiya, hokimiyat, siyosiy madaniyat, siyosiy marosimlar.

Insoniyat tarixida marosimlar muhim ijtimoiy hodisa sifatida shakllangan. Ular qadimdan jamiyat a'zolari o'rtasida birlikni mustahkamlash, hokimiyatga sadoqatni oshirish va jamiyatda mavjud ijtimoiy tartibni mustahkamlash vositasi bo'lib kelgan. Xususan, siyosiy tizimlar kontekstida marosimlar siyosiy tizimga xos qadriyatlar, ramzlar, va tartib



qoidalarni jamoaga singdirish orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlash va siyosiy hokimiyatni legitimlashtirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Marosim - bu jamiyat tomonidan avloddan-avlodga o'tadigan, an'anaviy tartibda takrorlanuvchi ijtimoiy-siyosiy harakatlar yig'indisidir. Marosimlar jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimini mustahkamlash, ijtimoiy tartibni saqlash va siyosiy hokimiyatni qonuniy deb qabul qilishga xizmat qiladi. Ular ko'pincha diniy, tarixiy, siyosiy yoki milliy ramzlar bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, marosimlar siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning legitimligini, ya'ni hokimiyatning jamiyat tomonidan adolatli va qonuniy deb tan olinishini ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan. Shuningdek, an'anaviy boshqaruvda ham marosimlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy boshqaruv shaklida hokimiyatga bo'lgan bo'ysunuv urf-odat va qadriyatlarga asoslanadi. Bunday tizimda hukmdorning hokimiyati shaxsiy fazilatlari emas, balki egallab turgan mavqei va uning kelib chiqishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, bu shakldagi legitimlik aynan marosimlar orqali mustahkamlanadi. Marosimlar tashqi bezak emas, balki ijtimoiy ongda hokimiyatni qonuniy va maqbul deb qabul qilishga olib keluvchi muhim vosita vazifasini o'taydi. Siyosiy hokimiyat ko'pincha ommaviy marosimlar orqali, ya'ni yetakchilarning hokimiyati va ularning an'ana yoki milliy o'ziga xoslik bilan bog'liqligini ko'rsatadigan tantanalar orqali mustahkamlanadi. Biz bunga an'anaviy boshqaruv merosi bo'lgan Buyuk Britaniyani misol qilib keltirishimiz mumkin. Buyuk Britaniya parlament monarxiyasi bo'lishiga qaramay, monarx qonun loyihalarini tasdiqlaydi, titul va unvonlar beradi, biroq qirollik instituti amalda faqat ramziy hokimiyatga ega. Qirol yoki Qirolicha hokimiyatning legitimligi an'analar, urf-odatlar va marosimlarga asoslanadi. Xususan, qirol yoki qirolichaning taxtga o'tirish marosimi faqatgina rasmiy lavozimga kirishish emas, balki butun xalq oldida hokimiyatning ilohiy va tarixiy asosga ega ekanini namoyish etuvchi muhim siyosiy marosimdir. Ushbu marosim diniy rasm-rusumlar, muqaddas matnlar o'qilishi va tarixiy ramzlar - toj, asov, xoch bilan



boyitilgan bo'lib, u hokimiyatni muqaddas deb qabul qilishga xizmat qiladi. Raiyat esa sulolaga o'rganganligi sababli, voris podshohga hokimiyatni tutib turish nisbatan oson kechadi. Nikkolo Makiavelli ta'kidlaganidek, "ajdodlarning tutumini buzmaslik va yangi vaziyatlarga moslashish orqali hatto o'rtamiyona hukmdor ham hokimiyatni saqlab qoladi."

An'anaviy boshqaruv tarixiga nazar tashlasak, hokimiyat doimo muqaddas asosga ega bo'lishga intilgan. Dastlabki yo'l boshchilardan tortib, Misr fir'avnlari, Yevropa qirollari, Xitoy imperatorlari - barchasi hokimiyatni irsiyat, din va marosimlar asosida mustahkamlab kelgan. Bugungi kunda mutlaq monarxiyalar davri deyarli tugagan bo'lsa-da, an'anaviy boshqaruv elementlari hali ham Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsariya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda hamda ayrim demokratik tizimlarda siyosiy madaniyat sifatida saqlanib qolmoqda.

Bugungi demokratik va avtoritar tizimlarda ham marosimlar siyosiy muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentlik inauguratsiyalari demokratik tizimda hokimiyat almashinuvining qonuniyligini namoyish etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarda nishonlanadigan Mustaqillik kuni, Konstitutsiya yoki tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog'liq marosimlar fuqarolik birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Avtoritar davlatlar siyosiy tozimidagi esa demokratiya tushunchasi shunchaki saylovlar marosimi sifatida muhim siyosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad avtoritar tizimni legitimlashtirish va fuqarolik erkinliklarini cheklash. Misol uchun, Shimoliy Koreyada siyosiy qonuniylik ommaviy bayramlar, harbiy paradlar va rahbarlar shaxsiga sig'inish orqali shakllantiriladi va hokimiyatning uzluksizligi hissi kuchaytiriladi. Bi esa, marosimlar siyosiy mafkura va ideologiyani jamoa ongiga chuqur singidirishda samarali vosita ekanini yaqqol namoyon etadi.

Diniy davlatlarda esa ko'pincha siyosiy hokimiyat ilohiy kuchga tayangan holda asoslanadi. Diniy marosimlar ommaviy ishtirok va umumiy qadriyatlarga asoslanganligi



bois, fuqarolarni birlashtiradi. Shu bilan birga, siyosiy birlik va davlat obro'sini oshiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Diniy marosimlar orqali rahbar shaxsi ko'pincha diniy simvolga aylantiriladi. Vatikanda Papaga bo'lgan hurmat e'tibor buning yaqqol dalili. Hattoki, Papaning roziligisiz ayrim Yevropa davlatlari mitinglari bekor qilinishi mumkin. Diniy marosimlar shu yo'sinda aholi xatti-harakati ustidan ma'naviy nazorat o'rnatadi. " Bunday davlatlar nihoyatda qudratli bo'lishi, hukmdorlarining hayot tarzi va qilgan qilmishidan qat'i nazar, ularni hukumat tepasida tutib turish" ni Nikkolo Makiavelli aytib o'tgan. Shu ma'noda Maks Veber din jamiyat, alohida sotsial guruhlar va individlar hayotida muhim va yuksak ro'l o'ynashini qayd etgan. Biz shunday xulosaga kelishimiz mumkinki diniy davlatlarda marosimlar - bu mafaqat diniy, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlaydigan qudratli vosita ham hisoblanar ekan. Ular orqali hokimiyat ilohiylashadi, ijtimoiy birlik mustahkamlanadi, va jamiyatdagi tartib saqlanadi. Bu ayniqsa avtoritar boshqaruvda muhim ro'l o'ynaydi. Shuni ham aytib o'tishimiz joizki, siyosiy manipulyatsiya marosimlar orqali xalq e'tiborini muhim muammolardan chalg'itishi mumkin. Bu 2022-yil 24-fevralda boshlangan Rossiya va Ukraina urushida yaqqol namoyon bo'ladi. Rossiya hukumati xalqni ma'lum darajada chalg'itish vositasi sifatida 1945- yil 9-may g'alaba kunini shu uch yil mobaynida ham urush bo'lishiga harbiy parad ko'rinishida nishonlab kelmoqda. Bu esa xalqni ma'lum bir ma'noda asosiy urush muammosidan e'tiborini chalg'itish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, marosimlar tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstda hokimiyatni qonuniylashtirish, mustahkamlash va barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos vosita vazifasini bajaradi. Ular faqatgina ijtimoiy birlikni mustahkamlab qolmasdan, o'z paytida siyosiy tizimga bo'lgan ishonchni ham shakllantiradi. An'anaviy boshqaruv shakllarida esa marosimlar orqali hokimiyat avloddan-avlodga meros sifatida o'tadi, zamonaviy siyosiy tizimlarda esa ular xalq ongida hokimiyat qonuniyligini davom



ettirish obrozi sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, marosimlar siyosiy barqarorlikning kuchli asosi ekanini bilib olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muqimjon Qirg'izboyev: - Siyosatshunoslik; O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. Toshkent: "Sharq", 2024.
2. Muqimjon Qirg'izboyev - Toshkent: Sotsiologiya: Yangi asr avlodi. 2022
3. Mamlakatlar tanazzul sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari: Daron Ajemo'g'li, Jeyms A. Robinson, ingliz tilidan Sirotulloxon Muhammadsoliev tarjimasi. Toshkent: "Ofset-print" MChJ, "Nihol" nashriyoti, 2021.
4. Jahon mamlakatlari. Shuhrat Ergashev, To'lqin Bobomatov, Nodir Tursunov, R. Farmonov - Toshkent: O'zbekiston; 2012.
5. Makiavelli Nikollo. Hukmdor. Toshkent: << Davr Press>> NMU, 2019.
6. <https://www.bbc.com>